

**SAMARQAND VA UNING ATROFLARIDA ISLOMIY TA'LIM
TIZIMI TARAQQIYOTI: KUTTABLAR FAOLIYATI VA ILMIY-
MADANIY MUHITNING SHAKLLANISHI**

Jabborov Qaxramon Jaxongir o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

E-mail: jabborovqahramon98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand shahrining Markaziy Osiyodagi ilmiy, madaniy va diniy-ma'rifiy markaz sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Samarqandning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy mavqei hamda uning ilmiy muhitining shakllanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, maqolada islom davrida ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sanalgan kuttab (boshlang'ich maktab) larning faoliyati, ularning ta'limiy mazmuni, pedagogik tamoyillari va jamiyatlardagi ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati tahlil etiladi. Samarqand va uning atroflarida yashab, diniy-ilmiy faoliyat olib borgan mashhur olim va muallimlar haqida tarixiy manbalarga tayangan holda ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand, kuttab, masjid, islomiy ta'lim, madaniyat, ilmiy muhit, Movarounnahr, mu'addib.

Samarqand qadim zamonlardan buyon Sug'd viloyatining siyosiy, madaniy va ilmiy markazi, shuningdek, mintaqaning eng nufuzli shaharlaridan biri sifatida tanilgan. Shahar Zarafshon daryosining janubiy sohilida joylashgan bo'lib, o'zining qulay geografik o'rni tufayli tarix davomida savdo, madaniyat va ilm-fan taraqqiyotining muhim o'chog'iga aylangan. Islom dini kirib kelgach, Samarqand Markaziy Osiyoda ilm va ma'rifat markazi sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Hijriy birinchi asrlardan bu maskan ilmiy tafakkur, diniy ta'lim va madaniy yuksalishning markaziga aylandi. Shahar hududida faoliyat yuritgan madrasalar va

masjidlar nafaqat diniy ta'lim maskanlari, balki "ilmiy minoralar" — ya'ni bilim va ma'rifat nurlarini yoyuvchi markazlar sifatida e'tirof etilgan.

Samarqand atrofidagi Asfijob, Arsh (hozirgi Shahrisabz yaqinida joylashgan), Andijon, Barsxon, Toshkent (Shosh) kabi manzillardan ham ko'plab olimlar, mufasssirlar va talabalar yetishib chiqqan. Ushbu hududlar ilm-fanning turli sohalarida faoliyat yuritgan mutafakkirlar bilan mashhur bo'lib, ular o'z davrida ilmiy tafakkur rivojiga sezilarli hissa qo'shganlar. Xususan, Nasaf, Buxoro, Kesh va Romitan kabi ilmiy markazlarda ham ta'lim va tadqiqot faoliyati yuksak darajada rivoj topib, ular butun mintaqa miqyosida ilmiy muhitning shakllanishida muhim o'rin egallagan.

Manbalarda qayd etilishicha, Samarqand qadimda Sug'd va Shosh o'lkalarining oralig'ida, strategik jihatdan nihoyatda muhim bo'lgan serhosil vodiya joylashgan. Shahar o'zining mo'tadil iqlimi, sof va musaffo havosi, atrofini o'rab turgan serdaraxt bog'-rog'lari hamda mo'l-ko'l suv manbalari bilan ajralib turgan. Hudud yerlari nihoyatda unumdor bo'lib, u yerda quyosh nuri daraxtlar soyasi bilan qisman to'silgan darajada zich o'rmonzor va bog'lar mavjud bo'lgan. Shahar atrofiga ko'plab qishloqlar yoyilgan, suv manbalari esa seroblighi va musaffolighi bilan mashhur bo'lgan. Shuningdek, Buxorodan keyin mintaqaning eng muhim shaharlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Ayrim tarixchilarning ta'kidlashicha, Samarqand o'z davrida dunyodagi eng go'zal, dam olish va sayr etish uchun qulay shaharlar qatorida bo'lgan.

Movarounnahr o'lkasining iqtisodiy hayotida Samarqand alohida o'rin tutgan bo'lib, u yirik savdo va hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan. Shahar o'zining mashhur mahsulotlari, xususan, Samarqand qog'ozi bilan butun dunyoga

tanilgan. Mazkur qog'ozning ishlab chiqarish texnologiyasi dastlab Xitoydan Samarqandga kirib keligan va bu yerda takomillashgan¹.

Samarqand shahrida tarix davomida amirlar, hukmdorlar va homiylar tomonidan ilmiy hamda diniy-ma'rifiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan. Ular masjidlar, madrasalar, kutubxonalar, ribotlar (safari va ziyoratchilar uchun mo'ljallangan joylar) hamda turli tariqat va diniy tashkilotlar uchun maxsus **vaqf mulklari** ajratganlar. Shu kabi tashabbuslar natijasida Samarqand o'z davrining yirik ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biriga aylangan bo'lib, unda ko'plab diniy va ilmiy muassasalar faoliyat yuritgan. Shahar ilm-fan rivojining muhim o'chog'iga aylangani tufayli Samarqanddan ko'plab allomalar, muhaddislar va faqihlar yetishib chiqqan. Bu holat mazkur maskanning ilmiy salohiyati va intellektual muhitining yuksak darajada bo'lganidan dalolat beradi. Shuningdek, Samarqand atrofi va unga yaqin qishloqlar ham ilm ahli bilan mashhur bo'lib, u yerdan chiqqan olimlar islom ilm-fanining turli tarmoqlarida o'z davrida salmoqli iz qoldirganlar.

Xususan:

- **Arxis** qishlog'idan — *Abbos ibn Abdulloh al-Arxisiy*, mashhur muhaddis va faqih, milodiy 1054-yilda (hijriy 446-yilda) vafot etgan².
- **Asbikas** manzilidan — *Ahmad ibn Bakr al-Asbikasiy*, ilm va hadis sohasida faoliyat yuritgan, milodiy 1040-yilda vafot etgan.

¹ Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasiy. *Ahsan al-Ta'qosim fi Ma'rifat al-Aqolim* (Mintaqalar haqidagi eng yaxshi taqsimlar), - Leiden: "Briel", 1906. – 278-279 b.

² Ibn al-Asir. *Al-Lubab fi Tahzib al-Ansab* (Nasablarning ixcham talqini), - Bag'dod: "Maktabat al-musanna", 1-jild, 1966. – 41 b.

- **Aston** qishlog'idan — *Abu Shayb Solih ibn Abbos ibn Hamza al-Hazoiy al-Astoniy*, o'z davrining taniqli olimlaridan biri bo'lgan.
- **Asfaranj** hududidan — muhaddis *Muhammad ibn Muhammad ibn Ismoil al-Asfaranjiy*, milodiy 1095-yilda vafot etgan.
- **Asmand** (yoki Samand) qishlog'idan esa ko'plab mashhur muhaddis olimlar yetishib chiqqan, jumladan: *Abu al-Fath Muhammad ibn Abdulhamid ibn Hasan al-Asmandiy*, *Sulaymon ibn Ahmad Ja'far al-Asmandiy*, va *Shafiq ibn Muhammad ibn Ali ibn Ahmad Sarkab al-Asmandiy* kabi allomalar. Manbalarda **Vazor** qishlog'i haqida Mahmud Shayt Xattob quyidagicha ta'rif beradi: “*Unda minora, masjid va go'zal qal'a mavjud. U katta shahar bo'lib, ko'plab hammomlar, serhosil ekin maydonlari va gavjum bozorlarga ega. U tekislik va tog' orasida joylashgan.*” Bu tavsif o'sha davrda mazkur hududning iqtisodiy, madaniy va me'moriy jihatdan rivojlanganligini ko'rsatadi³.

Bundan tashqari, **Ayzaj**, **Ayzuj**, **Andoq**, **Badan**, **Bardod**, **Barsan**, **Banj**, **Bandimesh**, **Toz** kabi manzillarda ham ko'plab shoirlar, muhaddislar va diniy ulamolar ijod qilganliklari tarixiy manbalarda qayd etiladi. Ushbu qishloqlar va aholisining ilmiy-ma'naviy faoliyati Samarqand va uning atroflarining umumiy ilmiy muhitiga bevosita hissa qo'shgan.

Samarqand o'zining qulay geografik joylashuvi, tabiiy sharoitlari va madaniy muhitining uyg'unligi bilan ajralib turgan. Mazkur omillar shaharni nafaqat savdo va siyosiy faoliyat markaziga, balki ilm-fan va ta'lim o'chog'iga aylantirgan. Shu bois, u asrlar davomida olimlar, muhaddislar, faqihlar hamda

³ Mahmud Shayt Xattob. Bilodu Movarounnahr (Daryoning narigi sohilidagi o'lkalarning tarixi), - Bayrut, 1990. – 98 b.

talabalar to'plangan markaz sifatida shakllangan. Ular Samarqandning o'zida, shuningdek, uning atroflaridagi qishloq va maskanlarda istiqomat qilib, ilmiy-ma'rifiy faoliyat bilan shug'ullanganlar. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Samarqand ilmiy muhitining yuksalishida xalifalar, sultonlar, amirlar va davlat arboblarning homiylik siyosati muhim o'rin tutgan. Ular ilm ahliga ehtirom bilan munosabatda bo'lib, o'zlarini ilm va madaniyatning homiylari, ma'rifatning posbonlari sifatida ko'rganlar. Shu sababli, olimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratish hamda ijtimoiy mavqeini mustahkamlashni o'zlarining asosiy burchlaridan biri deb bilganlar. Natijada, Samarqandda faoliyat yuritgan allomalar va mudarrislar nafaqat mahalliy ta'lim tizimini yuksaltirishda, balki butun islom ummatining ilmiy va ma'naviy taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shganlar. Shahar madrasalarida olib borilgan ta'lim jarayoni, ilmiy bahs-munozaralar va ijodiy faoliyatlar orqali Samarqand musulmon Sharqining eng yirik ilmiy markazlaridan biri sifatida shakllangan.

Islom ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini hisoblangan **kuttablar** (boshlang'ich **maktablar**) o'z davrida musulmon jamiyatining ma'naviy va ilmiy hayotida muhim o'rin egallagan. Tarixiy manbalarda kuttablarning ikki asosiy turi qayd etilgan:

1. **Birinchi tur** — bolalarga Qur'onni yodlashni o'rgatish uchun mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy maqsadi Qur'on matnini to'liq yod oldirish va to'g'ri tilovat ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat edi.

2. **Ikkinchi tur** — o'qish, yozish, hisob-kitob, din asoslari hamda Qur'on ilmlarini o'rgatishga qaratilgan bo'lib, bu kuttablar yanada kengroq o'quv dasturiga ega edi.

Ko'pchilik kuttablarda ta'lim jarayoni **Qur'on o'rganish, diniy fanlar va arab tilini** mukammal o'zlashtirishga yo'naltirilgan edi. Bu orqali o'quvchilarda diniy savodxonlikni mustahkamlash bilan birga, yozma va og'zaki ifoda madaniyatini rivojlantirish maqsad qilingan. Kuttablarda tahsil olgan bolalar Qur'on oyatlarini, Payg'ambar alayhissalomning hadislarini hamda solih insonlarning fazilatlarini madh etuvchi she'r va hikmatli so'zlarni yod olar edilar.

Ko'pincha kuttablar masjid bilan bevosita bog'liq holda tashkil etilgan bo'lib, ular masjidning yonida yoki uning bir burchagida joylashgan. Masjidni boshqaruvchi mutasaddi shaxs — imom yoki muallim — bu ta'lim maskanlarini nazorat qilib, ularning faoliyati uchun zarur moddiy mablag'larni ta'minlab turgan⁴. Shu tariqa, kuttablar diniy ta'limning boshlang'ich bosqichi sifatida musulmon jamiyatining ilmiy-ma'naviy taraqqiyotida muhim o'rin egallagan.

Kuttablarning faoliyati faqatgina Qur'on, hadis va diniy fanlarni o'qitish bilan cheklanmagan. Ularning ta'lim dasturi dunyoviy fanlar va umumiy bilim sohalarini ham qamrab olgan bo'lib, bu ta'lim muassasalari o'z davrida keng qamrovli ilmiy-ma'rifiy markaz sifatida faoliyat yuritgan. Kuttablarda nafaqat bilim berish, balki axloq, odob va fazilat masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Kuttablarda ta'lim jarayonini olib borgan o'qituvchilar "mu'allim", "mu'addib" yoki "mukattib" deb atalgan. Ular orasida mu'addib alohida maqomga ega bo'lib, u faqat dars beruvchi emas, balki ilm, din, odob-axloq va ijtimoiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ma'naviy tarbiyachi hisoblangan. Mu'addiblar

⁴ Rashod Ma'tuq. Al-Hayat al al-Ilmiyya fi al-Iroq fi al-Asri al-Buvayhiy (Buvayhiylar davrida Iroqdagi ilmiy hayot), Makka: "Maktaba al-Tolib", 1997. — 216 b.

o'quvchilarga nafaqat Qur'on va diniy fanlarni, balki komil inson sifatida shakllanish uchun zarur bo'lgan axloqiy fazilatlarni ham singdirganlar.

Aksariyat kuttab o'qituvchilari o'z faoliyatlarini moddiy manfaatni ko'zlamay, savob umidida, ijtimoiy va diniy mas'uliyatni anglagan holda olib borganlar. Bu hol o'sha davrda ta'limning ijtimoiy-axloqiy mohiyatini va ilm ahlining jamiyatdagi yuksak maqomini namoyon etadi. Mashhur tarixchi Ibn Xaldun o'zining "Muqaddima" asarida kuttablarda o'quvchilarga Qur'on, hadis, diniy hukmlar, arab tili grammatikasi, she'riyat, hisob-kitob asoslari, yozuv va xattotlik san'ati o'rgatilganini qayd etadi⁵. Shu bilan birga, arab tili grammatikasi va adabiyoti kuttab ta'limining ajralmas qismi bo'lgan.

O'quv jarayonida bolalar maxsus taxtachalar (lavhalar)dan foydalanganlar. Ushbu lavhalar yodlash, yozish va mashq qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini, yozuv madaniyatini va Qur'onni to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan. Natijada, kuttablar nafaqat boshlang'ich ta'lim muassasasi, balki musulmon jamiyatining ilmiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan.

Samarqand viloyatining turli qishloqlarida ko'plab kuttablar — ya'ni boshlang'ich ta'lim maskanlari faoliyat olib borgan. Ushbu maktablar, odatda, shahar ko'chalari, masjidlar va bozorlarga yaqin hududlarda joylashgan bo'lib, ularning faoliyati keng ijtimoiy qatlamni qamrab olgan. Aholi orasida bolalarga dastlabki diniy va dunyoviy bilimlarni beruvchi muallimlar keng tarqalgan bo'lib, ularning ayrimlari o'z davrida ilm ahli orasida yuksak obro' va shuhratga ega

⁵ Ibn Xaldun. Muqaddima Ibni Xaldun, - Bayrut: 1987. – 397-398 b.

bo'lganlar. Shunday mashhur muallimlardan biri — adib Abu al-Fazl Muhammad ibn Umar ibn Muhammad as-Sog'arjiy bo'lib, u Samarqanddan taxminan besh farsax (ya'ni 30–35 km) masofadagi qishloqlardan birida istiqomat qilgan. U otasiga tegishli maktabda Qur'on o'qitish bilan shug'ullangan, shu orqali diniy ta'limning rivojiga hissa qo'shgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, u hijriy oltinchi asrning birinchi yarmida vafot etgan.

Kuttab (ya'ni boshlang'ich ta'lim maskani)da o'qish musulmon ta'lim tizimining birlamchi pog'onasini tashkil etgan. Ushbu bosqichda bola dastlabki savodxonlik, Qur'on o'qish va diniy bilimlarni egallaganidan so'ng, u keyingi — yuksakroq ta'lim bosqichiga, ya'ni masjidda tahsil olish jarayoniga o'tgan. Masjid, tarixan, islom ta'lim tizimining markaziy o'chog'i sifatida nafaqat ibodat joyi, balki ma'naviy, ijtimoiy va ilmiy faoliyat markazi bo'lib xizmat qilgan. U musulmon jamiyatining asosiy tayanchi sanalgan bo'lib, islom ta'limotlarini mustahkamlash, ularning tamoyillarini yoyish va jamiyat hayotiga chuqur singdirish vazifasini bajargan. Islom tarixining barcha bosqichlarida masjid o'zining ta'limiy va tarbiyaviy mavqeini saqlab qolgan. Hatto keyinchalik maktab va madrasalar islom dunyosining turli shaharlarida keng tarqalganidan so'ng ham, masjid o'zining asl maqsadi — ilm berish, ilmiy bahs-munozaralar o'tkazish va ta'limni rivojlantirish vazifasini davom ettirgan.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand va uning atroflarida shakllangan ta'lim tizimi — ayniqsa, kuttablarning faoliyati — musulmon jamiyatining ilmiy-ma'naviy rivojida beqiyos o'rin tutgan. Bu maskanlarda olib borilgan ta'lim jarayoni nafaqat Qur'on, hadis va diniy fanlarni o'qitish bilan cheklanmagan, balki axloq, odob, hisob, yozuv va arab tili kabi fanlarni ham qamrab olgan. Kuttablar

faoliyati orqali o'quvchilarda diniy savodxonlik, yozma madaniyat va ma'naviy yetuklik shakllantirilgan. Shu bilan birga, hukmdorlar va homiylarning ilm ahliga bo'lgan e'tibori, ularning moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlovi Samarqandni yirik ilmiy-ma'rifiy markaz darajasiga ko'targan. Natijada, Samarqand nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham butun islom sivilizatsiyasi uchun ilhom manbai va ilmiy meros o'chog'i sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolgan.

aADABIYOTLAR:

1. Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasiy. Ahsan al-Ta'qosim fi Ma'rifat al-Aqolim (Mintaqalar haqidagi eng yaxshi taqsimlar), - Leiden: "Briel", 1906. – 498 B.
2. Ibn al-Asir. Al-Lubab fi Tahzib al-Ansab (Nasablarning ixcham talqini), - Bag'dod: "Maktabat al-musanna", 1-jild, 1966. – 459 B.
3. Mahmud Shayt Xattob. Bilodu Movarounnahr (Daryoning narigi sohilidagi o'lkalarning tarixi), - Bayrut, 1990. – 429 B.
4. Rashod Ma'tuq. Al-Hayat al al-Ilmiyya fi al-Iroq fi al-Asri al-Buvayhiy (Buvayhiylar davrida Iroqdagi ilmiy hayot), Makka: "Maktaba al-Tolib", 1997. – 500 B.
5. Ibn Xaldun. Muqaddima Ibni Xaldun, - Bayrut: 1987. – 465 B.